

O'ZBEKISTON SOTSIOLISTIK RESPUBLIKASIDA TA'LIM TARIXIDAN (1925-1940 YILLAR)

Sagdiyeva Xironxon Xalxodjayevna

Oriental universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich magistratura talabasi

E-mail: sagdiyevaxironxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1925-1940 yillarda O'zbekiston Sovet Sotsiolistik Respublikasida sovet ta'lif siyosati poydevorining tashkil etilishi, uning g'oyaviy, huquqiy va iqtisodiy asoslari yoritilgan. O'sha vaqtlardagi totalitar g'oya va keskin sinfiy nuqtai nazardan shakllangan xalq ta'limining sovet modeliga asos solingani, jamiyatning ma'naviy hayotini bir qolipga tushirishga intilgan bolshevikcha fikrlash, umumta'lim sohasidagi o'ziga xosliklarning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashishi ta'kidlangan. Shuningdek, mamlakatning madaniy-ma'rifiy hayoti, ilm-fan, maorifi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xalq, ta'lif, siyosat, maorif, məktəb, fan, o'qituvchi, qurultoy, sovet, mafkura.

FROM THE HISTORY OF EDUCATION IN THE SOCIALIST REPUBLIC OF UZBEKISTAN (1925-1940 YEARS)

Sagdiyeva Xironxon Xalxodjayevna

2nd stage master's student at Oriental University, Faculty of History

ABSTRACT

This article describes the organization of the Soviet educational policy, ideological, legal and economic foundations in the Soviet Socialist Republic of Uzbekistan in 1925-1940. It was based on the Soviet model of public education, which was formed from the totalitarian idea of those times and a sharp class point of view, the Bolshevik thinking that sought to standardize the spiritual life of society, and the fight against any manifestations of individualism in the field of general education. Also, information is given about the country's cultural and educational life, science and education.

Keywords: people, education, politics, education, school, science, teacher, congress, Soviet, ideology.

KIRISH

Jahon sivilizatsiyasi rivojida dunyo xalqlarining ilm-fan va madaniyat sohasida erishgan yutuqlari muhim o‘rin tutadi. Bu borada Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O‘zbekiston xalqlari jahon taraqqiyotiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan. Sharq va G‘arbni o‘zaro bog‘lagan va buyuk sivilizatsiyalar tutashgan O‘zbekiston hududida ilm-fan, madaniyat azal-azaldandan rivojlangan. Bu holat avlodlar o‘rtasidan to‘xtovsiz ravishda ravishda davom etib kelgan.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida milliy ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida ta’lim jarayoni tizimli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda ta’lim dunyoviy ilm asoslari berilmoqda.

Bugun ta’lim tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, insonlarning ongu tafakkurini o‘zgartirishga qaratilayotgan Prezident Farmon va Qarorlarining ijrosini ta’minlash, sohada yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, eng asosiysi maktab o‘quvchilari qalbining muhandislari bo‘lmish o‘qituvchi va pedagoglarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish davlatimiz siyosatining uzviy bo‘g‘ini sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim tarbiya jarayoni shafof, halqaro demokratik andozalar va jahon standartlari meyorlari asosida tashkil etilmas ekan, bilingki, bu tizimda oqsashlar xatoliklar bo‘laverishi tabiiy hol. Ta’limni tarbiyadan hech qachon ajratib bo‘lmaydi. Ta’lim tarbiya jarayonida millatimiz, halqimizning buguni va ertangi kun taqdiri mujassam. Shu ma’noda bugun prezidentimiz boshchiligidagi ta’lim va tarbiya sifatini keskin oshirishga qaratilgan Farmonlar va Qarorlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini olamizmi, O‘zbekistonda dunyoviy ta’lim integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan forumlar, yirik uchrashuvlar, xalqaro konferetsiya va seminarlarni olamizmi, u ham bo‘lsa bitta maqsad – qanday qilsak, ta’lim tarbiya jarayonida jahonda yuksak darajada o‘z o‘rnimiz bo‘ladi shu kabi natijalarga erishish yo‘lida fidokorona, sidqidildan xizmat qilishga qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi. Bu haqda O‘zLiDePdan O‘zbekiston prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev o‘z saylovoldi dasturida ma’lum qilgan edi.

Mustamlaka Turkiston Sovet hukumati tomonidan bosib olinganidan so‘ng, uning madaniyat tarixini tadqiq qilish bo‘yicha bir qancha ilmiy ishlar qilingan. Bu mavzuga bag‘ishlangan monografiyalar, umumlashtirilgan fundamental asarlar, risollalar va maqolalar mavjud. Ilmiy ishlar asosan Chor Rossiyasi rejalarini amalga oshirish uchun xizmat qilgan kishilar, keyinchalik esa sovet tarixchilari tomonidan yozilgan. Har ikkala davrlarda yozilgan asarlar o‘sha davrning mstamlakachilik g‘oyalari, olib borilgan siyosati bilan sug‘orilgan, ularagi haqqoniy tarixiy haqiqatlar buzib ko‘rsatilgan. Hukmron tuzumga xizmat qilishga qaratilgan. Faqatgina mustaqillikka

erishilganidan so‘ng Turkistonning milliy madaniyati tarixi xolisona o‘rganila boshlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 19 yanvar kuni respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining videoselektor tarzida o‘tkazilgan majlisida “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarmizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O‘zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishimiz vaqtি-soati keldi” deb ta’kidlangani bejiz emas.

Turkistonning ilg‘or vakillari hamisha madaniyatni rivojlantirishga, xalqni ma’rifatli qilishga, ta’lim sohasida o‘rta asrlar qabohatidan qutulishga intildilar.

Qadimdan milliy madaniyat rivojlangan ko‘p sonli madrasa va maktablarga ega bo‘gan Turkistonda o‘ziga xos ta’lim tizimi mavjud edi. Keyinchalik bu yerda jadid maktablari vujudga keldi va ularda diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o‘qitila boshlangan. Mahalliy yoshlarning milliy maktablarda ta’lim olishi ularning o‘zligini anglashga yordam berar edi. Rus mustamlakachilarini Turkistondagi keng tarmoqli xalq maorifi o‘choqlari :maktablar va madrasalar g‘oyat ajablantirgan edi. Istilochilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilik tadriji uchun o‘sha maktablar va madrasalarning xavfli ekanligini payqadilar. Chor hukumati esa milliy maorifni cheklash, madrasa, maktablarni vaqf yerlaridan cheklash va shu yo‘l bilan ularni yo‘q qilish siyosatini olib bordi.

Turkistonning ilg‘or vakillari hamisha madaniyatni rivojlantirishga, xalqni ma’rifatli qilishga, ta’lim sohasida o‘rta asrlar qabohatidan qutulishga intildilar.

Chor ma’muriyati va sovet sotsialistik tuzum Turkistonda jadid maktablarini ochilishiga qattiq qarshilik ko’rsatdilar. Chunki maktablarni ochgan jadid ma’rifatchilar xalqni o‘z huquqlarini tanishga da’vat etdilar, hamda istiqlol uchun kurash olib bora boshlagan edilar.

Aynan o‘sha vaqtarda totalitar g‘oya va keskin sinfiy nuqtai nazarga asoslangan xalq ta’limining sovet modeliga asos solindi. Jamiyatning ma’naviy hayotini bir qolipga tushirishga intilgan bolshevikcha rahbariyat g‘oyaviy jihatdan boshqacha fikrlash, umumta’lim sohasidagi o‘ziga xosliklarning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurash boshladи. Ayniqsa musulmon maktablari va madrasalari bundan ko‘p jabr ko‘rdi. Kuch ishlatish, qatl qilish usullari bilan bolsheviklar partiyasi va sovet hokimiyati 1920- yillardning oxiriga kelib an’anaviy maktablarni deyarli tugatdi. Vijdon erkinligini toptash, dindorlarni quvg‘in qilish, diniy maktablarni yopish tub aholining ma’naviy hayotidan milliy qadriyatlarni siqib chiqarish jarayonini tezlashtirish, xalq ta’limini sovetlashtirish asosida rivojlatirishga olib keldi. Bu davrning muhim hususiyati shundaki, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalardagi inqiroz hamda

islohotlarning murakkab omuxtasi, mahsulot bozori munosabatlarini tiklashga va hokimyatlarning totolitar rejimini mutahkamlashga intilish kabilar bilan ko‘zga yaqqol tashlandi. Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish davrida hukumatning umumta’lim siyosatida ba’zi qirralar oydinlashdi. Xalq ta’limi tizimi bozor munosabatlariga moslashishga majbur bo‘ldi. Bu yangi iqtisodiy siyosat davri va stalincha davlat boshqaruvining uqubatli zamonlari tarixini o‘rganish ma’muriy-buyruqbozlik boshqaruv usullarini qo‘llash halokatga olib borishini to‘la va asosli ochib berish, ma’nviy-ta’limiy sohada chetga og‘ishlarni chuqur idrok etish, shuningdek, milliy manfaatlar poymol etilishi oqibatida sovetlar davri mobaynida to‘planib qolgan muammolarni hal etishning yo‘li va vositalarini aniqlash, huquqiy-demokratik jamiyatni shakllantirishga yo‘l ochadi. 1925 yildan esa O‘zbekistonni har tomonlama Rossianing qoloq, tobe o‘lkasi, rivojlanishga zarurat sezuvchi hudud sifatida tavsiflanar edi.

1920-1925 yillarda Turkistonda davlat o‘z oldiga quyidagi vazifalarini qo‘ydi: yangi maktablar tashkil etish va mustahkamlash, unga imkon qadar ko‘proq mehnatkash bolalarni jalb qilish, hamma joyda maktablarga yangi mafkuraviy mazmunni joriy etish, yangi o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash.

Tashkil etilgan rus ta’lim muassasalaridan ko‘zlangan maqsadlardan biri talab etilgan mutaxassislarini tayyorlash ham edi. Turkistonda o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mustamlakachi hukumat «ruslashtirish» siyosatini olib bordi. Bu siyosatning bir yo‘nalishi sifatida o‘lkada rus ta’lim tizimining joriy etilishi hokimiyat vakillari oldida turgan muhim vazifaga aylandi. Rus ta’lim muassasalari yordamida mahalliy aholi vakillaridan kelajakda mustamlaka tuzum siyosatiga xizmat qiluvchi sodiq kishilarni tarbiyalash rejalashtirilgan edi. Eng avvalo, o‘lkada rus ta’lim muassasalari tizimini shakllantirish hamda mahalliy aholi orasida rus tili va madaniyatini tarqatish ta’lim islohotlaridan ko‘zlangan birinchi darajali maqsad sifatida belgilangan.

Bolsheviklar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalari kabi ma’nviy hayotga ham o‘z ta’sirlarini o‘tkazish uchun “maorif”, “maktab”, “o‘qituvchilar” muammosini yechishga kirishdilar. Ayniqa maorif sohasida bu narsa yaqqol sezildi.

Ular tomonidan madaniyatni sovet mafkurasiga bo‘ysundirish Oktabr to‘ntarishidan keyingi dastlabki yillaridanoq boshlandi. Turkistonda keyinchalik O‘zbekistonda bu jarayon maorif va ta’lim sohasida keskin tus oldi. 20 yillarnig boshidayoq gazeta va jurnallarning 80% ta’lim muammolariga bag‘ishlangan bo‘lsa, ularning yarmidan ko‘pi bolshevistik g‘oya bilan sug‘orilgan edi. “Oliy o‘quv yurtlari, maktab va maktabgacha tarbiya mussasalarida ishning asosiy negizi va o‘zagi siyosat bo‘lishi lozim”, degan aqidaning tarafdarlaridan biri Ielning maqolasi bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Shunga qaramay, Oktabr voqealaridan so‘ng dastlabki yillarda madaniy taraqqiyotni Turkiston sharoitiga ko‘proq mos keladigan shakllarini ishlab chiqish va muhokama etish ustida ko‘pgina ishlar olib borilgan. Bunda asosiy e’tibor xalq maorifi va ma’rifat ishlariga qaratilgan. Masalan “Вестник просвещения и коммунистической культуры” (“Maorif va kommunistik madaniyat xabarlari”) jurnali mahalliy aholi o‘rtasida ma’rifat tarqatish vazifasini ilgari surib, yaxshi biladigan kadrlar tayyorlash, RSFSR Markaziy oliy o‘quv yurtlari qoshida O‘rta Osiyo vakillarini oliy o‘quv yurtlariga kirishga tayyorlash uchun tayyorlov kurslarini tashkil etsh zarurligini alohida qayd etgan.

Sovet maktablarini tashkil etish muammosiga bag‘ishlangan dastlabki maqolalardan biri P. Lepeshinskiy maqolasi ham 1920 yilda ana shu jurnalda chop etilgan. Ayniqsa sharqshunos olim P.P.Ivanov maqolasi alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, unda pedagog kadrlardan oqilona foydalanish masalasi juda to‘g‘ri qo‘yilgan. O‘sha yillarda P.P.Ivanov bu sohaga Oktabr inqilobidan so‘ng ishdan chetlashib, uzoqlashib ketgan ayniqsa eski usuldagи maktablarda faoliyat ko‘rsatgan o‘qituvchilarni jalb etish va ularni qaytadan tayyorlash zarurligini ta’kidlagan muallif bo‘lgani ehtimoldan holi emas.

Ma’lumki, 1920 yllarning boshlarida ichki ziddiyatlar, tashqi urushlar, milliy ozodlik harakatlari tufayli yuzaga kelgan qaltis vaziyatlar sovet davlatining barbob bo‘lish xavfini kuchaytirdi.

Ma’muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayib borishi O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy axvolini battar og‘irlashuviga olib keldi. 1924 yllarning oxirlariga kelib bu siyosatga barham berildi. Zo‘rlik va tazyiqlar orqali O‘zbekiston SSR tashkil etilishi mintaqada ijtimoiy siyosiy jarayonlarning kuchayishiga olib keldi. Sovetlar O‘zbekistonda milliylikni cheklash va tugatish siyosatini yanada chuqurroq va jadalroq amalga oshirishga harakat qilish sababli sovet hukumatining siyosati, maqsadlari yashirildi, tarix esa soxtalashtirildi, ba’zi sahifalari umuman ko‘rsatilmadi. 1930 yillar sovet hokimyati uchun o‘zining siyosiy va iqtisodiy mavqeini yanada mustahkamlash davri bo‘ldi. Istiqlolchilar kurashi, barcha ixtilofdagi siyosiy partiyalar tugatilishi natijasida bolsheviklar mutlaq yakkahokim partiyaga aylandi. U jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida o‘z mafkuraviy ta’sirini o‘tkazib bordi. Ayniqsa bu kishilar ongini o‘zgartirishda muhim omil bo‘lgan ta’limda, ilmda va madaniyatda jiddiy tus oldi. Dastlabki yillarda madaniyat va uni boshqarish jabhalarida demokratik tamoyillar birmuncha mavjud bo‘lib, hokimiyat mahalliy urf-odatlar va xususiyatlarni hisobga olishga majbur bo‘lgan edi. Keyinchalik esa ma’muriy-buyruqbozlik usullari keng quloch otib mustahkamlanib borishi bilan yalpi ko‘rsatkichlar ortidan quvish, bolshevikcha “madaniy inqilob” yo‘li va usullari ustuvorlik qila boshladi. Xalqning ma’rifatga, fanga va milliy ma’naviyatga bo‘lgan intilishi hukmron kuchlar tomonidan

uzoqni ko‘zlamay va yaxshi o‘ylamay olib borgan siyosatlari natijasida siyosiy manfaatlar yo‘liga burildi. Yangi ziyoli kadrlarni shakllantirish, eski mavjud ziyyolilarni yo‘q qilish ana shu maqsadlarni ko‘zlab yo‘q qilindi.

Sovet hukumati O‘zbekistonda jamiyatni tubdan o‘zgartirishga kirishdi va ta’lim tizimi bu o‘zgarishlarni osonlashtirdi. Ular ta’lim tizimini “qoloq” diniy muassasalaridan marksistik/leninistik mafkura asosida qurilgan dunyoviy tizimga aylantirdilar.

O‘zSSR tashkil etilganidan so‘ng sovetlarning eng dastlabki ishlari hududlardagi 1 va 2 bosqichli boshlang‘ich maktablar, “savodsizlikni” tugatish maktablari, maorif institutlarini ochish, o‘qituvchilar tayyorlash qisqa mudatli kurslarini ochish bo‘ldi.

Yangi mehnat sovet maktablarini vujudga keltirish ishida ilgarigi Buxoro amirligi va Xiva xonligi territoriyasida joylashgan oblastlarga alohida e’tibor berildi, chunki u yerda feodal tuzumining uzoq hukmronligi oqibatida o‘sha yillar hali ko‘pgina diniy maktablar saqlanib qolgan va aholi deyarli yoppasiga savodsiz edi. Shu sababli Zarafshon, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlarida maktablar tarmog‘ini taraqqiy ettirish uchun juda katta kuch sarflandi.

Lekin shu bilan birga, maktab ta’limining tashkil etilishida, ayniqsa qishloq maktablarida hamon katta kamchiliklar bor edi. O‘sha yillarda (1926) qishloq boshlang‘ich maktablarida o‘qish muddati rasman uch yil bo‘lsada, ko‘pincha amalda turli sabablarga ko‘ra ikki yildan oshmas edi, buning natijasida boshlang‘ich ma’lumot bilan o‘rta ma’lumot o‘rtasidagi izchillik va o‘zaro bog‘lanish buzilardi va qishloq joylaridagi ikkmnchi bosqich maktablarining rivojlanishiga to‘sinqlik qilardi.

1926 yildan e’tiboran O‘zbekiston qishloqlarida dehqon yoshlari maktablari ochila boshladи. Bu maktablar ko‘rsatib o‘tilgan kamchilikni bartaraf qilish va tez rivojlanib borayotgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning kadrlarga bo‘lgan talablarni qondirishga da‘vat etilgan edi. Mazkur maktablarda umumiylar ta’lim beradigan o‘quv fanlari bilan bir qatorda, o‘quvchilarni qishloq xo‘jaligidagi ratsional agrotexnika usullarining qo‘llanishi bilan amaliy ravishda tanishtirib borishga ko‘p e’tibor berilgan edi. Bu yerda o‘quvchilar maktabning topshiriqlari bo‘yicha o‘z otanonalarining xo‘jaliklarida muayyan ish turlarini bajarish yo‘li bilan amaliy malakalar hosil qilar edilar.

Dehqon yoshlari maktablari agronomlikdan savodli kadrlar tayyorlashda ijobiy rol o‘ynadi. Lekin bu maktablar dastlab paydo bo‘lgan vaqtarda ularning o‘quvtarbiya jarayonlarida jiddiy kamchiliklar bor edi, ya’ni o‘quvchilarning fan asoslarini egallashlari masalasiga hech kim yetarli e’tibor bermasdi.

1928 yilda O‘zbekiston territoriyasida eski maktablar deyarli qolmagan edi. O‘sha yili Shzb.SSR da 133 ta mehnat sovet maktablari mavjud edi. Bu maktablarda 139800 nafar bola o‘qidi, mahalliy millat qizlari o‘quvchilarning 26,1% ini tashkil qilar edi.

Besh yil mobaynida, 1924-1929 yillarda respublikada maktablar soni uch baravardan ortiq, o‘quvchilar soni esa 2,5 baravar ko‘paydi.

O‘zbekiston barpo eilgan birinchi yilidayoq xotin-qizlar uchun 21 ta savodsizlikni tugatish maktablari ochilgan. Bunda 1200 nafar o‘zbek ayoli o‘qitilgan. U yerni tamomlagan xotin-qizlar turli umumiyligini kurslariga, jumladan xotin-qiz o‘qituvchilar kurslariga kirdilar. Bu vaqtida respublikada o‘zbek muallimalarining birinchi otryadlari paydo bo‘ldi.

Maktab binolari qurilishi hali talablarni qondira olmas va maktablар uchun ko‘p pedagoglar hamda o‘quv jihozlari yetishmas edi, ona tilidagi darsliklar qo‘yilgan talablarga hamma vaqt ham javob bera olavermasdi. Kambag‘allarning bolalari maktabga qatnamasdi, o‘smirlar va yoshi o‘tib qolgan bolalar o‘qishga kam jalb qilinar edi.

Mustabid tuzum katta yoshdagi axolining arab alifbosidagi o‘zbek yozuvidan olgan bilimini hisobga olmasdan ularni “savodsiz” deb atadi va “savodsizlikni tugatish maktab”larini tashkil etdilar.

Sovet tuzumi “Savodsizlik” maktablarini tugatar ekan, sovet maktablari ta’limi tizimida tarbiyalanuvchilarning milliy-an’anaviy xususiyatlari, ularning ma’naviy shakllantirishga e’tibor bermadi. Sovet xokimyatining “shaklan milliy, mazmunan sotsiolistik madaniyat”ni vujudga keltirish g‘oyasi 1930 yillarda amalga oshirish uchun dastlabki qadamlar qo‘yilgan va bir necha o‘n yillab yashab keldi.

Har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan ta’lim tizimini yaratib bordi. Aslini olganda bevosita mehnat jarayoni bilan bog‘liq odamlarni ilmiy-ma’rifiy markazga jalb qilishdan ko‘ra, xudud aholisini qishloq xo‘jaligi bilan band qilish mazkur tuzum manfaati uchun mos edi. Sovet uslubidagi maktablarni sonini ko‘paytirish uchun davlat va maxalliy budget tomonidan xalq maorifi uchun mablag‘lar hajmini oshirish uchun choralar ko‘rildi.

1940 yilda o‘zbek xalqi madaniyatiga qarshi chiqqan holda bir necha asrlardan beri asriy yozuviga aylangan arab alifbosidagi o‘zbek yozuvi tugatilib, rus grafikasiga o‘tildi. Olib borilayotgan rus ta’lim tizimini yanada rivojlantirish partiya XVIII sezdi qarorlari asosida amalga oshirilardi. Maktab ta’limi O‘zbekistonning sotsialistik qurilish amaliyoti bilan chambarchas bog‘liq edi. 2-jahon urushigacha O‘zbekiston SSRda allaqachon 4800 ta maktab bo‘lib, ularda 1223,1 ming o‘quvchi ta’lim olgan.

Sovet maktablarini ko‘paytirish va mustahkamlash ishlariga 1927-1928-o‘quv yilidan boshlab axamiyat berila boshlandi. Bu davrdan boshlab, maktab binolarini qurish va ularni jihozlar bilan ta’minlash uchun mablag‘lar miqdorini yanada oshirib borildi. 1930-1935 yillarda umumiyligini – majburiy boshlang‘ich, yetti yillik ta’limning joriy qilinishi maktablar, o‘qituvchilar sonini oshirish, darsliklar yaratish, maktablarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash kabi masalalarini yechishni talab

etardi. Buning uchun davlat budgetidan ajratib boriladigan mablag‘lar soni ham oshirib borildi. Tadqiq etilayotgan yillarda viloyatlardagi maorif sohasi uchun ajratilayotgan mablag‘lar miqdori yuqori ko‘rsatilayotgan bo‘lsada, amalda mablag‘larning bir qismigina sarflanar edi.

Viloyatlarda maktablar soni ko‘paygan bo‘lsada, maktablar viloyatlar ehtiyoji uchun yetarli emas edi. Maktablarning ahvoli o‘ta og‘ir darajaga kelib qolgan edi. Maktab yoshidagi hamma bolalar ta’limga to‘liq jalb etilmagan edi. Ularga sifatga emas balki, faqat son ketidan quvish holatlari ustunlik qildi.

Yuqoridagi sovet davlatining statistik ma’lumotlarida ko‘rsatilishicha xalq ta’limi maktablari soni 1927-1928-o‘quv yilida ma’lum darajada rivojlaganligini ko‘rsatadi. Respublikada kunduzgi maktablar soni 2 baravarga ko‘paygan. 1924-1925-o‘quv yilidagi 908 maktabga nisbatan 1966 ta maktab. Bu sezilarli o‘sish 1932-1933 yillarda ham kuzatiladi. O‘sha paytda 6538 ta maktab mavjud bo‘lib, bu 1924-1925 o‘quv yiliga nisbatan 3 barobar ko‘pdir. 1937-1941 yillarda maktablarning soni 5504 taga va ularda o‘qiyotgan o‘quvchilar soni 1 mln. 315 kishiga yetgan. Biroq raqamlar ortidan quvish va shoshma-shosharlik oqibatida umuiy ta’limni joriy qilishda ko‘pgina jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yildi. Jumladan maktab yoshidagi bolalarining bir qismi o‘qishga tortilmay qolishi, o‘qishni tashlab ketayotgan o‘quvchilar soni(ayniqsa mahalliy millat yoshlari orasida)ortib bordi.

XULOSA

Sovet hukumati O‘zbekistonda maktablar, o‘rta maxsus va oliv o‘quv yurtlarini tarmoqlarini yaratar ekan, ta’lim tizimida bir shakllilikni amalga oshirdi. Bolsheviklar tomonidan O‘zbekistonda diniy ulamolarga ta’lim va tarbiya ishlariga yo‘l berilmasligi orqali yosh avlodni sovet mafkurasiga xizmat qiladigan qilib tarbiyalash siyosati ko‘zlangan edi. Bundan tashqari o‘sib kelayotgan yosh avlodning o‘zligini, milliy qadriyatlarini yo‘qotish bo‘lgan.

Mustabid tuzum ma’muriy-buyruqbozlik usullari orqali “madaniy inqilob” yo‘li bilan xalqning ilm-fan va ma’rifatga bo‘lgan intilishini siyosiy manfaatlar tomon yo‘naltirdi. Bolsheviklar tarbiyaning dastlabki va ta’sirchan o‘chog‘i bo‘lgan xalq ta’limini birinchi kundanoq mafkura izmiga solish uchun butun imkoniyatini ishga soldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 19 yanvar kuni respublika Ma'nnaviyat va ma'rifat kengashining videoselektor tarzida o'tkazilgan majlisidagi nutqi
2. 2023 yil O'zLiDePdan O'zbekiston prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev o'z saylovoldi dasturi nutqi
3. Sodiqov H. O'zbekisonning yangi tarixi. 1-kitob. -Toshkent: Sharq, 2011.-235 b.
4. Культура, просвещение и образование в Узбекистане (1917-1990 гг.)
https://studbooks.net/1939321/pedagogika/kultura_prosveschenie_obrazovanie_uzbekistane_1917_1990nbspgg.
5. Политика и просвещение //Вестник просвещения и коммунистической культуры. 1921.№8. С.2
6. .П.Иванов. Просвещение и учитель//Народное хозяйство Средней Азии. 1926.№8-9 стр.180-181.
7. Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшунослиги. (очерклар. 2-қисм)-Тошкент 2012 й. Адабиёт учқунлари нашрёти,161 б.
Д.А.Алимова. 1920-30 йиллар тарихшунослигига Ўзбекистонда таълим ва маданият: большевистик ғоялар ва реал ҳолат.
8. Sodiqov H. O'zbekisonning yangi tarixi. 2-kitob. -Toshkent: Sharq, 2011.-385 b.
9. Sovetlarning 2 qurultoyiga materiallar. "O'zbekistonda xalq maorifi", Samarqand. 1927y. 3-bet.
10. Qodirov E. Q. O'zbekiston umumta'lim maktablarining rivojlanish tarixi (1917-1975). -T.: O'qituvchi, 1979.-392 b.
11. Qoriniyozov T.N. Sovet O'zbekistoni madaniyat tarixidan ocherklari. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1956. 513 bet.
12. З.Рахимбабаева. Женщина Узбекистана на пути к коммунизму. Ташкент, Госиздат УзССР, 1949, 31с.
13. O'zbekiston SSR tarixi. 2-tom.-T., Fan nashryoti, 1974. 460 b.